SHARQ VA G‘ARB MUSIQIY AN’ANALARINING ZAMONAVIY KOMPOZITORLIK IJODIYOTIDAGI O‘ZARO UYG‘UNLIGI

(«Dutor sadolari» asari misolida milliy cholg‘ular tembrining zamonaviy talqini)

Fakhridinova Dilbar Lazizovna
Kompozitor
https://doi.org/10.5281/zenodo.21949810

Annotatsiya: O‘zbekiston musiqa san’atida milliy musiqiy merosning zamonaviy kompozitorlik ijodiyotida qayta talqin qilinishi alohida ahamiyatga ega.

Mazkur maqolada sharq va g‘arb musiqiy an’analarining zamonaviy kompozitorlik ijodiyotidagi o‘zaro uyg‘unligi «Dutor sadolari» asari asosida tahlil etiladi. Tadqiqotda ud, dutor va chanqovuz kabi milliy cholg‘ularga xos tembr xususiyatlar Yevropa akademik cholg‘ular, xususan, skripka, alt va kontrabasning zamonaviy ijro texnikalari asosida qayta talqin qilinishi o‘rganiladi. Tadqiqot natijasida, sharq va g‘arb musiqa an’analari milliy cholg‘ularga xos tembr xususiyatlar hamda akademik cholg‘u ijrochiligi imkoniyatlarining o‘zaro uyg‘unlashuvi orqali namoyon bo‘lishi asoslanadi.

Kalit so‘zlar: sharq, g‘arb, an’ana, musiqa, uyg‘unlik, «Dutor sadolari», tembr, ijro imkoniyatlar, cholg‘ular.

Аннотация: В музыкальном искусстве Узбекистана особое значение приобретает переосмысление национального музыкального наследия в современном композиторском творчестве.

В статье анализируется взаимное взаимодействие и гармоничное сочетание музыкальных традиций востока и запада в современном композиторском творчестве на основе произведения «Отзвуки дутара» («Дутор садолари»). Исследуется переосмысление тембровых особенностей национальных инструментов, таких как уд, дутар и чанковуз, посредством современных исполнительских техник европейских академических инструментов, в частности скрипки, альта и контрабаса. В результате исследования обосновывается, что взаимное сочетание музыкальных традиций востока и запада проявляется посредством интеграции тембровых особенностей национальных инструментов и исполнительских возможностей академических инструментов.

Ключевые слова: восток, запад, традиция, музыка, гармония, «Отзвуки дутара», тембр, исполнительские возможности, инструменты.

Abstract: In the musical art of Uzbekistan, the reinterpretation of national musical heritage within contemporary compositional practice is of particular importance. This article analyzes the interaction and harmonious integration of eastern and western musical traditions in contemporary compositional practice through the example of the work «Dutar Echoes» («Dutor sadolari»).

The study examines the reinterpretation of the timbre characteristics of traditional instruments such as the oud, dutar and chankavuz through contemporary performance techniques applied to European classical instruments, particularly the violin, viola and double bass. The study demonstrates that the harmonious integration of eastern and western musical traditions is manifested through the combination of the timbre characteristics of traditional instruments and the performance capabilities of classical instruments.

Keywords: east, west, tradition, music, harmony, «Dutar Echoes», timbre, performance capabilities, instruments.

Zamonaviy kompozitorlik ijodiyotida turli musiqiy madaniyat va an’analar o‘rtasidagi ijodiy aloqalarning kuchayishi, milliy musiqiy tafakkurning yangi badiiy ifoda shakllarini izlash jarayonini faollashtirmoqda. Mazkur jarayonda, milliy musiqiy merosning an’anaviy shakl va vositalarini saqlab qolish bilan bir qatorda, zamonaviy kompozitsion tafakkur, akademik ijrochilik va yangi tovush imkoniyatlari asosida qayta talqin qilish, muhim yo‘nalishlardan biri sifatida namoyon bo‘lmoqda. Shu nuqtai nazardan, sharq va g‘arb musiqiy an’analarining o‘zaro uyg‘unligi zamonaviy kompozitorlik ijodiyotida milliy va akademik musiqiy tafakkurning kesishuv nuqtalarini aniqlash imkonini beradi.

Darhaqiqat, yurtimizda professional kompozitorlik maktabi shakllanishining dastlabki bosqichlarida, Yevropa akademik musiqasi an’analari, xususan, garmoniya, polifoniya, faktura va shakl yaratish tamoyillari yetakchi metodologik asos sifatida namoyon bo‘lgani hamda ularga faol murojaat etilgani kuzatiladi. Mazkur jarayon, milliy musiqaning professional yozma tizimga o‘tishida muhim bosqich bo‘lib xizmat qilgan. Keyingi bosqichlarda esa, sharq va g‘arb musiqiy an’analarining o‘zaro uyg‘unlashuvi yuzaga keldi, natijada, sharq lad-intonatsion asoslari va ohangdorlik xususiyatlarini Yevropa kompozitorlik texnikalari orqali badiiy jihatdan rivojlantirish ijodiy tendensiyaga aylandi.

Aytib o‘tish joizki, bugungi kunda, O‘zbekiston musiqa san’atida milliy an’analar va zamonaviy ijodiy izlanishlarning uyg‘unlashuvi muhim ilmiy-amaliy yo‘nalishlardan biri sifatida e’tirof etilmoqda. Shu bilan birga, zamonaviy kompozitorlik-ijrochilik sohasidagi ilmiy-amaliy izlanishlar, xususan, milliy cholg‘ularga xos tembr xususiyatlarni yangicha ko‘rinishda talqin etish tendensiyasi ham kuchayib bormoqda. O‘zbekiston davlat konservatoriyasi qoshida 2020-yilda tashkil etilgan Zamonaviy musiqa laboratoriyasi faoliyati doirasida olib borilgan ilmiy-amaliy hamda ijodiy tajribalar, mazkur jarayonning yaqqol namunasi sifatida xizmat qiladi. Shuningdek, laboratoriyada kompozitor-ijrochining o‘zaro hamkorligi, yangi asarlar ustida tajribalar olib borish, tembr balansini aniqlash hamda turli nazariy-amaliy texnik yechimlarni sinovdan o‘tkazish jarayonlari amalga oshirilgan.

Shu bilan birga, laboratoriyada sharq va g‘arb musiqiy an’analarining o‘zaro uyg‘unlashuvi bir necha bosqichlarda o‘rganilib, tahlil qilingan hamda ilmiy-ijodiy tadqiqotlar natijasida kompozitor-ijrochi mualliflik asarlari yaratilib, muvaffaqiyatli natijalarga erishilgan.

Ta’kidlab o‘tilgan bosqichlar esa quyidagicha:

- sharq cholg‘ulari bilan g‘arb klassik musiqa cholg‘ularining birlashuvi;
- sharq ohanglarida g‘arb cholg‘ulari tembrining qo‘llanilishi (ijro uslublari kesimida);
- sharq cholg‘ulari orqali Avangard musiqa[1] yaratish;
- sharq cholg‘u ijrochilik xususiyatlarini g‘arb cholg‘ularida zamonaviy faktura orqali ifoda etish.

Ana shunday ijodiy izlanishlar doirasida yaratilgan «Dutor sadolari» asari, sharq va g‘arb musiqiy an’analarining zamonaviy kompozitorlik ijodiyotidagi o‘zaro uyg‘unligini o‘rganish uchun kerakli manbaa bo‘lib xizmat qiladi.

«Dutor sadolari» asari, ilk bor, 2023-yilda Zamonaviy musiqa laboratoriyasi doirasidagi loyihalardan biri – «Yetti vodiy» nomli musiqiy-teatral performansda yangragan. Asar g‘oyasi, o‘zbek milliy cholg‘ularning tembr xususiyatlarini, g‘arb akademik cholg‘ularning ijro imkoniyatlari yordamida qayta talqin qilishdan iboratdir.

Asarning ansambl tarkibi (tam-tam, bass drum, chang, skripka, alt va kontrabas) kam sonli, ammo tembr jihatdan boy. Skripka, alt, kontrabas – asarning cholg‘u tarkibida,

[1] Avangard musiqa – an’anaviy musiqiy qoidalar, shakllar, tovush tizimlari va ijro usularidan chetga chiqib, yangi va tajribaviy badiiy vositalarni izlaydigan musiqiy yo‘nalish.

markaziy o‘rin egallab turgan cholg‘ulardandir. Dutor, ud va chanqovuz kabi cholg‘ularga xos bo‘lgan tembr xususiyatlar, aynan, shu uch cholg‘ular orqali ifodalanadi.

«Dutor sadolari» asari, shakl jihatdan mustaqil, biroq, ichki dramatik rivojga ega. Asarda milliy cholg‘ularning tembr xususiyatlari to‘g‘ridan-to‘g‘ri qo‘llanilmagan, balki, yuqoridagi cholg‘ularning ijro texnik imkoniyatlari orqali qayta talqin qilingan. Shuni ham aytib o‘tish joizki, asar – an’anaviy shakl tuzilmasidan voz kechilgan, erkin hamda tembrga asoslangan dramaturgiyaga tayanadi.

Dastlab, alt va kontrabas cholg‘ularida sul ponticello va sul tasto ijro uslublari hamda cho‘zilgan tovushlar orqali sonor[2] qatlam shakllantirilgan. Ayniqsa, p-mf-p dinamikadagi kamonning xarrakdan grif tomonga aylanma harakati va tovushlarning uzoq davom ettirilishi natijasida chanqovuzga xos bo‘lgan rezonansli akustik effekt yuzaga keladi.



Skripka cholg‘usida milliy koloritni yanada ko‘rsatish maqsadida (flautato) poco molto vibrato orqali nim pardalarni olishga erishilgan. Ud cholg‘usining ohangi esa skripkada (ayniqsa, sol simida) pizzicato ijro uslubi orqali yaratiladi. Bu yerda tovushning qisqa, ammo boy tembrli rezonansi ud cholg‘usining jarangiga juda yaqin.



Ma’lumki, dutor cholg‘usi an’anaviy ijrochilikda vertikal holatda ijro etiladi. Ammo, laboratoriyada olib borilgan izlanishlar shuni ko‘rsatadiki, kontrabas cholg‘usining gorizontal holatda ijro etilishi, dutorning urib-chertish texnikasini ham vizual, ham akustik jihatdan namoyon eta olishini isbotlab berdi.



Asarning tuzilishi kontrastlarga asoslangan. Boshlang‘ich bo‘limda, dinamikada sokin va monologik ohang ustun bo‘lib, chanqovuz tembri, mazkur bo‘limning o‘zagi sifatida ko‘rsatilgan. Keyingi bo‘limlarda, tembr o‘zgarishlar, ijro uslublarining almashinuvi, jumladan, alt cholg‘usi o‘rta qismda sul tasto va sul ponticello dan ricochet ijro uslubiga o‘zgaradi.

[2] Sonor – Y. N. Xolopov atamasi.



Partituraning chang cholg‘usi qismida ham noan’anaviy ijro uslublarini kuzatishimiz mumkin. Ya’ni, chang ijrochisi, asarning belgilangan ma’lum bir qismida chang torlarini bir qo‘lining kafti bilan yopsa, ikkinchi qo‘lida esa kamon bilan birga bir vaqtning o‘zida ijro eta oladi. Shubhasiz, mazkur ijro, malakali mutaxassis, changchi Ravshan Tuxtamishev[3] tomonidan amalga oshirilgan hamda ijod jarayonida kompozitor-ijrochi ko‘zlagan natijasiga erishgan. Chang cholg‘usining maxsus tayoqchalari yordamida odatdagidek torlar ustida emas, balki, cholg‘uning korpusida tayoqchalar orqali ritmni ifodalash maqsadida, zarb bilan ijro etish holatlarini ham uchratishimiz mumkin.



Xulosa o‘rnida aytish joiki, zamonaviy kompozitorlik ijodiyotida sharq va g‘arb musiqiy an’analarining o‘zaro uyg‘unligi turli musiqiy elementlarning oddiy birikmasi emas, balki, milliy musiqiy tafakkur va akademik ijrochilik imkoniyatlarning ijodiy qayta anglanishi asosida shakllanadigan murakkab badiiy jarayondir.

Shu o‘rinda, «Dutor sadolari» asari esa, milliy cholg‘ular tembrining g‘arb akademik cholg‘ularda qayta talqin etilishining yorqin namunasi sifatida zamonaviy O‘zbekiston kompozitorlik maktabining yangi izlanishlarini ifodalaydi. Asarda, tembr, ijro imkoniyatlar hamda cholg‘ulashtirish uyg‘unligi orqali milliylik va zamonaviylik sintezi muvaffaqiyatli tarzda amalga oshirilgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Зряковский Н. Общий курс инструментоведения. -М., 1978.
2. Чулаки М. Инструменты симфонического оркестра. -М., 1970.
3. Холопова В. Формы музыкальных произведений. Учебное пособие. – С. П.: Лань, 2001. - 496 с.
4. Erkayev N. I. O‘zbekiston kompozitorlarining simfonik asarlarida orkestrlashtirish masalalari: San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 17.00.02.-Musiqa san’ati. -T.: 2024. - 45 b.
5. Zakirova V. M. O‘zbekiston kompozitorlari ijodida konsert janrlari: San’atshunoslik fanlari bo‘yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati. 17.00.02.- Musiqa san’ati. -T.: 2018. - 42 b.
6. Shukur J. Ravshan Tukhtamishev’s collection of works. Ten concert pieces for solo chang. // Eurasian music science journal. -T.: 2025. -71-73 p.

[3] Ravshan Tuxtamishev – O‘zbekistonlik mashhur chang ijrochisi. U 2024-yil mart oyidan buyon Kanadaning Vankuver shahrida istiqomat qilib kelmoqda.